



Features of political and economic relations between Uzbekistan and the People's Republic of China

Omadjon KODIRJONOV¹, Khusanboy MUMINOV²

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 15 October 2023

Available online

25 November 2023

Keywords:

Czarist Russia,
colonialism,
sovereignty,
brand,
investment,
enterprise,
credit

ABSTRACT

Since gaining independence, the Republic of Uzbekistan has established diplomatic relations with many countries of the world. The main economic partner of the Republic of Uzbekistan today is the People's Republic of China (PRC), therefore this article reveals the history of economic and political relations between the two countries on a scientific basis.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5-pp78-82>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston va xitoy xalq respublikasi o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning o'ziga xos jihatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Chor Rossiyasi,
mustamlakachilik,
suverenitet,
brend,
sarmoya,
korxona,
kredit

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan beri jahonning ko'plab davlatlari bilan diplomatik aloqalarini yo'lga qo'ydi. O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi asosiy iqtisodiy hamkoriga aylangan davlat bu Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) hisoblanadi, shu sababli ushbu maqola ikki davlatning iqtisodiy va siyosiy aloqalari tarixini ilmiy asosda ochib beradi.

¹ Student, Faculty of History, Andijan State University

² Associate Professor, Teacher, Faculty of History, Andijan State University

Особенности политических и экономических отношений между Узбекистаном и Китайской Народной Республикой

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Царская Россия,
колониализм,
суверенитет,
бренд,
инвестиции,
предприятие,
кредит

С момента обретения независимости Республика Узбекистан установила дипломатические отношения со многими странами мира. Основным экономическим партнером Республики Узбекистан сегодня является Китайская Народная Республика (КНР), поэтому в данной статье на научной основе раскрывается история экономических и политических отношений между двумя странами.

Dunyoda insoniyat paydo bo'lib to davlatlar shakllangan davrlardan beri, insonlar va ular qurgan davlatlar qo'shnilari yoki ular vositachiligida boshqalar bilan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy aloqalarni olib boradilar. Shu jumladan vatanimiz ham ko'p ming yillik tarixi davomida turli xalqlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borgan va bunda mamlakatimizning "Buyuk Ipak yo'li" ustida joylashgani savdoning tez rivojlanishiga keng yo'l ochib bergan. Xitoy davlati uzoq tarixdan ma'lumki mamlakatimiz bilan doimo yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yishdan manfaatdor bo'lgan hamda shu maqsadda miloddan avvalgi 138-126-yillarda Chjan Syanni o'lkamizni o'rganib, bu hududdagi mamlakatlar bilan harbiy hamda savdo shartnomasini tuzish uchun yuboradi. Shu bilan Xitoy va O'zbek munosabatlari boshlanadi. Buyuk Ipak yo'li faoliyat yuritgan davrdagina emas balki bu yo'l o'z ahamiyatini yo'qotgandan so'ng ham vatanimiz hududida hukmronlik qilgan davlatlar va Xitoy o'rtasidagi aloqalar hech ham to'xtab qolmagan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishigina Xitoy bilan savdo aloqalarining vaqtinchalik to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. 1917-yilgi oktabr davlat to'ntarilishi ham vaziyatni o'zgartirmaydi, faqatgina Ikkinchi jahon urushidan keyin Xitoyda hokimiyatga kommunistlarning kelishi holatni biroz o'zgartirdi.

Sovet tuzumiga barham berilishi natijasida o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'rta Osiyo davlatlariga, xususan, O'zbekiston Respublikasiga jahon hamjamiyati tomonidan katta e'tibor qaratila boshlandi. Bunda O'zbekiston bilan qadimdan tarixiy aloqalarga ega bo'lgan Xitoy o'rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy Xalq Respublikasi 1991-yilning 27-dekabrida O'zbekistonni suveren va mustaqil davlat sifatida tan oldi. 1992-yil 2-3-yanvar kunlari XXR tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzin Toshkentda bo'lib, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatik aloqalarni o'rnatdi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov esa 1992-yil 12-14-mart kunlari XXRga tashrif buyurib, safar davomida 15 ta muhim hujjat imzolandi va shu vaqtdagi XXR raisi Li Shankun Pekindagi Xalq majlislari uyida O'zbekiston delegatlarini qabul qilish marosimida: "Xitoy bilan O'zbekiston rahbarlari ikki tomonlama munosabatlarning ko'pgina masalalarni hal etishlari mumkin. Chunki bundan avval ham ikkala mamlakat o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilgan edi", deb ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikka katta baho bergan edi. Li Shankunning bu fikrlari qanchalik to'g'ri va foydali bo'lganini esa bugungi kunda ko'rib turibmiz, xususan, ikki mamlakat o'rtasidagi

savdo aylanmasi 2017-yilning o'zidayoq 5 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yildagi o'zlashtirilgan Xitoy sarmoyasi 2,2 milliard dollarni tashkil etganligi ham Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

1992-yildan boshlab ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilishi bilan birga savdo-iqtisodiy aloqalarda oziq-ovqat mahsulotlarini o'zaro ayirboshlash ham yo'lga qo'yildi. Mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan guruch mahsulotlariga Xitoy tomonidan 1992-1993-yillarda ajratilgan kreditni bunga misol qilish mumkin. Bundan tashqari, ayni shu davrda Xitoydan 15000 tonna choy keltirildi. 1994-yil 18-20-aprel kunlari XXR davlat Kengashi raisi Li Penning O'zbekistonga davlat tashrifi davomida ham O'zbekiston va Xitoy o'rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, havo transportini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Xitoy O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan

IL-76 TD va IL-114 samolyotlarini xarid qilishga kelishib oladi.

Xitoy yangi mustaqil davlatga qiziqayotgan yagona davlat emas edi. Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va shu singari davlatlar brendlari ham o'zbek bozorini egallash uchun Xitoy bilan raqobat qila boshladi. Albatta xitoyliklar o'zbek bozorida yuqori o'rinni egallab turish maqsadida O'zbekistonga sifatli, arzon tovarlarini tez yetkazib berish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda. So'ngi 30 yilda Xitoy-O'zbekiston tovar ayirboshlash hajmi 140 marta oshganligi Xitoy hukumatining O'zbekistonga va o'z navbatida O'zbekiston tomonining Xitoy sarmoyasiga bo'lgan qiziqishi ham yuqori ekanligidan dalolat beradi. Buni esa 2017-yildan buyon Xitoy sarmoyasining 5 martaga ko'paygani va bugungi kunda 10 mlrd dollardan oshgani isbotlaydi.


Albatta bunday katta iqtisodiy o'sishga ikki tomon davlat rahbarlarining rasmiy davlat tashriflari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xitoy Xalq Respublikasiga 1994, 1999, 2001-yillarda rasmiy tashrif bilan borgan bo'lsa, 1995-yil XXR Davlat kengashi boshlig'i Li Pen, 1996-yil XXR raisi Szyan Szemin, undan keyin esa Xu Szintao 2004 va 2010-yilda O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurgan. Ikki davlat o'rtasidagi yaqin hamkorlik aloqalari Si Tszinpinning boshqaruvi davrida ham davom ettirilmoqda. Bunga uni 2013, 2016, 2022-yillarda O'zbekistonga qilgan rasmiy tashriflarini misol qilish mumkin. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham XXRga tashrif buyuradi.

2017-yil 11-may kuni Sh.Mirziyoyev Xitoy davlati rahbari Si Tszinpinning taklifiga ko'ra Xitoyning Pekin shahriga davlat tashrifi bilan yo'l oladi va ularni "Shoudu" xalqaro aeroportida XXR rasmiylari faxriy qorovullar ishtirokida kutib olishdi. 12-may kuni Butunxitoy xalq vakillari kengashi binosida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Ushbu tashrif davomida "Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 700 dan ziyod kompaniya va korxona faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan yillar davomida xitoylik sarmoyadorlar O'zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 8 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritgani barchamizni xursand qiladi", — dedi Shavkat Mirziyoyev. Bu tashrif davomida O'zbekiston va Xitoy 23 milliard AQSh dollari qiymatiga teng 105 ta ikki tomonlama hujjatlarni imzolashdi.


2023-yil 17-may kuni esa Xitoyning Sian shahrida 18-19-may kunlari bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Xitoy" formatidagi muzokaralarda ishtirok etish uchun Shavkat Mirziyoyev Xitoyga bordi. Bu safar davomida O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 2023—2027-yillarga mo'ljallangan yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Tashrif davomida yana 41 ta ikki tomonlama hujjat imzolanib,

umumiy qiymati 25 milliard dollardan ziyod bo'lgan yangi yuqori texnologik sanoat, savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi .

2022-yilda O'zbekistonning Xitoyga qilgan eksporti 1.75 milliard AQSh dollarini tashkil etgan .



Shu yili O'zbekiston Xitoydan 6.32 milliard AQSh dollariga teng mahsulotlarni import qilgan .



Foydalanilgan adabiyotlar ro'hati:

1. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov, O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Sharq, 2013. –B.651.
2. Тюриков В., Шагулямов Р. По пути нэзависимости. –Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 2000. –B.393.
3. M.Lafasov, Jahon tarixi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: Turon-Iqbol, 2018. –B. 263.
4. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov, O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Akademnashr, 2019. –B.556.
5. Kun Uz URL: <https://kun.uz/uz/83760478#!>
6. M.Lafasov, Jahon tarixi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: Turon-Iqbol, 2018. –B. 264.
7. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov, O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Sharq, 2013. –B.651.
8. Uz Report URL: <https://uzreport.news/politics/o-zbekiston-va-xitoy-o-rtasida-diplomatik-munosabatlar-o-rnatilganiga-30-yil-to-ldi>
9. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti. O'zbekiston-Xitoy munosabatlari ulkan istiqbolga ega. URL: <http://pravacheloveka.uz/oz/news/ozbekiston-xitoy-munosabatlari-ulkan-istiqbolga-ega>
10. Kun Uz URL: <https://kun.uz/uz/83760478#!>
11. Kun Uz URL: <https://kun.uz/uz/news/2017/05/15/savkat-mirzieevning-hitojga-davlat-tasrifi-kiskaca-tafsilotlar-va-rakamlar>
12. Gazeta Uz URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/china/>
13. Daryo Uz Url: <https://daryo.uz/2023/05/19/shavkat-mirziyoyevning-xitoyga-davlat-tashrifi-yakunlandi>
14. Trading Economics Url: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/exports/china>
15. Trading Economics Url: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/exports/china>